XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2022 - yil 8 - fevral VI-54-37-7-93-K/22 Bulung’ur tuman hokimligi

2-sektor rahbari, tuman prokurori S.Saidovning 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida

2-sektor rahbari, tuman prokurori S.Saidovning 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti eshitilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining LIV sessiyasi

QAROR QILADI:

1. 2-sektor rahbari, tuman prokurori S.Saidovning 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2-sektor rahbari (S.Saidov) sektor a’zolari bilan birgalikda:

hududda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ko‘p bolali oilalarga, nogironligi bo‘lgan shaxslarga va yolg‘iz qariyalarga, o‘z daromadini yo‘qotgan vaqtincha ishsiz bo‘lgan shaxslarni moddiy qo‘llab-quvvatlash;

tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi bilan hamkorlikda hududda aniqlangan ishsiz va kam ta’minlangan aholini ish bilan band qilish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev), tuman hokimining o‘rinbosari - Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (A.Xazratqulov), tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi (B.Bosimov)lar “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni ishga joylashtirish orqali tegishli daftardan chiqarish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘rolov)larga doimiy ravishda sektorlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar yuzasidan maqolalar tayyorlab borish tavsiya etilsin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Rajabov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **N.Mamadiyarova**